

Keyingi yillarda aholi murojaatlari doirasida olib borilgan o'rganish va tahlillar natijasida aniqlanishicha, aholini qaynab kelayotgan va aynan ularning murojaatlarida eng ko'p tilga olinayotgan muammolar ichimlik suvi, elektr energiyasi ta'minoti hamda yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq masalalar bo'lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib tuman hokimligi hamda sektorlar rahbarlari tomonidan mahallalar kesimida amalga oshirilayotgan dasturiy vazifalar ichida ushbu sohadagi ijtimoiy muammolarni birlamchi bartaraf etishga alohida ahamiyat qaratilyapti.

Tahlil va raqamlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, 2024-yil davomi va 2025-yilning dastlabki ikki oyi davomida Inkobod mahallasi hududidagi 29-umumta'lim maktabi, Chilonzordagi 42-maktab, Sariosiyo mahallasi hududidagi 3-umumta'lim maktabi hamda Kofrun mahallasidagi 32-maktab binolari joriy

ta'mirlandi. Ichki yo'llarni yaxshilash maqsadida 14 ta mahallalar hududidagi 34,5 km. masofadagi ichki yo'llar asfaltlashtirildi. Ayni damda ushbu ichki yo'llarning aksariyatida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazilib, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Jumladan, Shirinobod mahallasining "Labisoy" ko'chasida 0,8 km, Oqtuproq ko'chasida 1,5 km, Inkobod mahallasidagi "Kamari azizon" ko'chasida 1 km, "Qizil to'lqin" va "Yoshlik" ko'chalarida 1,5 km qismi joriy ta'mirlanib, asfaltlandi.

Hududlarda elektr ta'minoti yaxshilash doirasidagi dastur asosida tumandagi 7 ta mahallalarda 1166 ta eski simyog'ochlar o'rniiga yangi beton ustunlar o'rnatilib, 67 km. elektr tarmoqlari yangilaniib, 10 dona yangi transformator o'rnatildi. Masalan, faqat

"Mustaqillik" mahallasining o'zida 10 km. masofadagi elektr tarmoqlari rekonstruksiya qilinib, 2 dona KVa transformator hamda 133 ta beton ustun o'rnatildi.

O'tgan yil davomida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga qaratilgan murojaatlar ijrosiga ham alohida e'tibor qaratildi. Natijada uzoq yillardan buyon ichimlik suvi tanqisligidan aziyat chekib kelayotgan Pulhokim mahallasi aholisining ichimlik suvi ta'minoti yaxshilash maqsadida 11 kilometrlik ichimlik suv tarmog'i tortish ishlari boshlab yuborildi va u ayni paytda jadal davom etmoqda. Shuningdek, Kofrun mahallasining aholisi uchun 5 kilometrdan ortiq asosiy tarmoqda ichimlik suvi tortilib, 270 ta xonadonlarga suv hisoblash uskunalarini o'rnatish amalga oshirilyapti. Kofrun tutashtash Dashtig'oz mahallasidagi aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida suv saqlash va tarqatish hovuvi qurib bitkazildi. Sig'imi 250

metr-kub bo'lgan xuddi shunday suv saqlash va tarqatish inshooti Sayrob mahallasida ham barpo etildi. Shu jumladan, Chilonzor mahallasiga Panjob qishlog'idagi buloqdan 12 kilometrlik ichimlik suv tarmog'i tortish rejalashtirilgan bo'lib, shu kunlarda qurilish-montaj ishlari jadal olib borilmoqda.

Tumanimiz miqyosida aholi murojaatlari asosida olib borilayotgan bu kabi ishlar, albatta, muhtaram Prezidentimizning birinchi navbatda hududlardagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, aholi uchun qulay infratuzilma va yashash sharoitini yaratish bo'yicha bergan ko'rsatmalarini izchil amalga oshirishga qaratilgan vazifalar hisoblanib, bu vazifalar joriy yil davomida ham keng miqyosda amaliyotga tatbiq etish ko'zlangan.

A.SHOPIYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Boysun tumanidagi Xalq qabulxonasi yetakchi mutaxassisi.

ФУҚАРОЛАРГА МУХИМ ИМТИЁЗ
Эндиликда давлат хизматлари маркази оператори хоҳланг ўйингизда, хоҳланг иш жойингизга чиққан ҳолда хизмат кўрсатиши мумкин. Бу Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 31 августдаги 435-сон давлат хизматлари жойларга чиққан ҳолда кўрсатишнинг маъмурий регламентини тасдиқлаш тўғрисидаги қарорига мувофиқ йўлга қўйилмоқда.

Бўнинг учун Сиз адлия вазирлигининг алоқа марказига, яъни 1148 қисқа рақамига соат 9-00 дан 18-00 гача иш вақти давомида ёки унинг расмий веб сайти орқали сутканинг исталган вақтида мурожаат қилишингиз мумкин.

Давлат хизматларини жойига чиққан ҳолда кўрсатиш ёки давлат хизматларидан фойдаланишга ариза юбориш учун Тошкент шаҳрида БХМнинг 50 фоизи, вилоят марказларида БХМнинг 40 фоизи, туман (шаҳар)ларда эса БХМнинг 30 фоизи миқдориди бир марталик тўлов ундирилади.

Ўзгалар ёрдамига муҳтож қариялар ва мустакил ҳаракатланиш имконияти чекланган ҳамда 1- ва 2-гурӯх ногиронлиги бўлган шахсларга давлат хизматлари кўрсатилганлиги учун тўлов ундирилмайди.

Ўшбу хизмат қуйидаги давлат хизматларига нисбатан татбиқ этилмайди:

- миллий ҳайдовчилик гувоҳномасини расмийлаштиришга;

- ID картасини ҳамда хориҳга чиқиш биометрик паспортини расмийлаштиришга;

- ЖШШИР бериш бўйича давлат хизматларини кўрсатишга.

Муборак ХОЛИКОВА, туман адлия бўлими ФХДБ бўлиминининг иккинчи тоифали инспектори.

ИНТЕРНЕТ ҲАҚОРАТ ХОЛИС ФАЙЗ МАҚОНИ ЭМАС

Бугун интернет тармоғи ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланиб улгурди. Эрта тонгдан телефонни олиб янгиликларни ўқишга шошамиз.

Афсуски, аксарият хабарлар ҳақиқатдан йироқ, блоглар маданият мезонларига жавоб бермайди, изоҳлар эса ҳақорат ҳамда камситишларга тўла. Баъзан ўзимга ёқмаган кишилар, ҳатто бутун бошли худуд аҳолиси шаънига тош отишлар ҳам учраб туради. Бу эса таълим-тарбиямиз, одоб-ахлоқимиз хусусида жиддий бош қотиришимиз лозимлигидан далолат беради.

Узоққа бормайлик. Яқиндагина ижтимоий тармоқда кетма-кет бир неча нафар қизлар мамлакатимиз олис ҳудудларида истиқомат қилувчи юртдошларимизни тилга олиб бўлмас сўзлар билан ҳақорат қили чикмишди. Уларнинг чиқишлари қисқа муддатда виртуал оламни ларзага солди ва фойдаланувчиларнинг жиддий эътирозларига сабаб бўлди. Халқимизда ғийбат, тухмат, асоссиз мишмишлар тарқатиш, ёлгон сўзлаш, ҳақорат қилиш, чаққимчилик, иғво, бўҳтон ва сохта гувоҳлик бериш каби иллатлар қатъий қораланади. Бойси, буларнинг ҳаммаси тил орқали содир бўладиган гуноҳлардир.

Киши бошқа бир кишини камситиши, сўкиши яхши эмас. Мамлакатимиз қонунчилигида ҳам ғуқаро бошқа бир ғуқаронинг шаънини топташига йўл қўйилмайди. Шу боисдан ҳам юқоридида тилга олинган қизларга нисбатан тегишли жазо чоралари қўлланилди.

Тўғри, бугун ижтимоий тармоқ турли бемаъни видео ва ахборотларга тўлиб кетди. Афсуски, уларнинг аксарияти ёшларимиз билан боғлиқ, Демак, вақтни кўндан бой бермасдан фарзандларимиз таълим-тарбияси билан шуғулланишимиз лозим. Уларга қўп асрлик миллий қадриятларимизни ўргатишимиз, ўтмишда ўтган буюк молларимиздан ибрат олишга руҳлантиришимиз, тил ва қалбимизни бирдай ислоҳ қилишга чорлашимиз даркор. Зеро, тўғри тарбия олган, аждоқларидан фахрланган инсон борки, аввал ўйлаб, кейин сўйлайди, ноҳоиз ҳаракатларга йўл қўймайди. Аксинча, ўз билими, салоҳияти ҳамда одоби билан ота-онаси, Ватанини кўларга кўтарди.

Асомиддин ХУДОЙҚУЛОВ.

Yoshlarda teatr san'ati madaniyatini shakllantirish, san'at, madaniyat sohasida yosh iqtidorlarni kashf etish va yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida maktablarda tashkil etilgan "Turon" o'quvchilar teatr jamoalarining faoliyati tez ommlashayotganligi bilan ham e'tiborga tushmoqda.

Ayniqsa, bu kabi jamoalar faoliyatini ma'naviy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida o'tkazib turilayotgan yillik tanlovlar jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin.

Tanlovning joriy yildagi tuman, viloyat bosqichlari har doimgidagina yuqori saviyada tashkil etildi. Faoliyat avvalida kichik-kichik sahna ko'rinishlari bilan cheklanib qolgan havaskor yosh san'atkorlar endilikda jiddiy dramatik asarlarga ham murojaat qiladigan, tanilqil dramaturg va yozuvchilar ijod namunalari "Turon" orqali maktab sahnasiga olib chiqishga jasorat topadigan bo'ldilar. Boysun tuman ixtisoslashgan maktab qoshidagi "Turon" o'quvchilar teatr jamoasining "Teatr ibodatxona" shiori ostida o'tkazilgan tanlovning viloyat bosqichiga taqdim etgan "Tanho qayiq" spektaklini ana shu jasorat namunasi deyish mumkin.

Ma'lumki, O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zamovning "Tanho qayiq" dramasida (Spektakl ham shu nomda) zamonamizning eng global muammolaridan biri bo'lgan Orol fojiasi o'ziga xos kontekstda yoritilgan. Shuning uchun ham yosh aktyorlar oldida ikki mas'uliyati talab—avvalo dramaturg Erkin A'zam asarida ko'tarilgan muammoning tub mohiyatini anglab yetish va bu muammoni sahnadagi ijro orqali tomoshabinga yetkaza olish turardi.

Erkin A'zam asarlari, bir qarashda kitobxonni bir oz "tashvishga" qo'yishligi, uni mulohaza va mushohadaga tortishiga, bir o'qishdanoq xulosa chiqarishga shoshilmasslikka undashi bilan ham o'ziga xosdir. Masalan, "Tanho qayiq" asari negizida yaqin o'tmishda sodir bo'lgan Orol fojiasidek global muammo tursa ham, u real

borliqning aynan o'zini aks ettirmaydi. Binobarin, "Tanho qayiq" tabiat va jamiyat muammosini ifodalaganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Orol fojeasining asl sabablari izlanadi. Odob-xilqoq, elsevarlik, o'zi tug'ilib o'sgan joyga sodiqlik va vatanparvarlik ideal me'yorlari tashvir etiladi.

Asar bosh qahramoni — Orol boboning orzu-umidlarida butun bir xalqning orzu-umidlari, alamlarini his qilamiz. Uning timsolidagi butun orolbo'yi mintaqasidagi xalqlar fojeasini ko'rgandek bo'lamiz. Zotan, Orol boboning

“TANHO QAYIQ” – TANLOVNING ENG YAXSHI SAHNA ASARI



dengizni o'z asliga qaytarish yo'lidagi orzu-intilishlari va nadomatlari orqali biz insoniyatning tabiatga nisbatan qilgan yovuzlarcha tajavuzining oqibatlarini kelgusida yana qanchalik global tus olishi xizmatini angliyamiz.

Umuman, Erkin A'zamning mahorati shundaki, u faqat Orol fojeasini aks ettirmaydi, balki yigirma birinchi asr odamlarining ona tabiatiga munosabati ortidan kutilayotgan oqibat, fojea haqida bong uradi. Shuningdek, "Tanho qayiq"ga global dunyoning moddiy ilinjidagi kishilari uchun imon-e'tiqod chorlovi, ulariga izhor etilgan o'ziga xos ogohнома ham deyish mumkin.

Sahna asari, garchand havaskor o'quvchi yoshlar tomonidan ijro etilgan bo'lsa-da, unda ko'tarilgan global muammoning o'tkirligi, Erkin A'zam dramaturgiyasining

(Аваллаш. Охираш дар шумораи гузашта)

ШОИРАИ ДИЛОШЎБ

сад ва хонанда онро хонда ба соҳибқаламаш аҳсан меҳонад.
Дар арафай иди бонувон апаи Ўғулой чанде намунаҳои ашъори хешро ба унвони мо фаришод.

Мо низ аз фурсати давр истифода карда, дар тимсоли апаи Ўғулой ва кулли бонувону модарон ба ин иди дилафрӯз табрику муборак бодашон меғуём! Илоҳо ҳамеша бонувону модарон дар бахти мо зиндаву поянда бошанд! Ҳоло се шеърӣ ўро (бо тахаллуси Дилошўб) бароятон чун барги сабз тақдим мекунам.

Н.РАҚАБ.

**Ягона такягоҳам буд модар,
Ҳам он пушту паноҳам буд модар.
Вале рафт аз бари ман, баъди маргаш,
Сиришки гарму оҳам шуд модар.**

**Дилам хоҳад, бубинад рӯи модар.
Бибўсам чашму ҳам абрӯи модар.
Васият мекунам, баъде ки мурдам,
Бигўронед дар пахлӯи модар.**

**Аё модар, наи андар бари ман,
Набоши сарвару ҳам раҳбари ман.
Миёни дарду ғам танҳои зорам,
Биё, дастам бигир, ғампарвари ман.**

Намудан тарки олам гарчи бошад хоҳиши Оллоҳ,
Зи беҳеҳрии ёрону ҳам аҳли ин ҷаҳон мемирам.

Тамоми умр қўшидам пай ободии хона,
Ба мақсад чун расидам, баҳри чанде порам нон мемирам.

Дар ин дунёи равшан ман будам як шахси бадбахте,
Барои ғумшуда аз даҳр ду нахли ҷавон мирам.

Ба сурат соҳиби бахтам ва гўё лоиқи тахтам,
Ҳазон гардидам, ёрон ба саҳти он ҷунон мирам.

Зи умри рафтаам чун меҳўрам хайфу дареғи беш,
Канори мардуми бегонаву номехрубон мирам.

Бичарҳад зери лабҳо номи оне, ки будам зораш,
Вале аз ҷабри тақдирам чу як барги ҳазон мирам.

Касе чун мешавад тавлид рӯзе хок хоҳад шуд,
Расад рӯзе, ки ман ҳам тарк ғуфта ин ҷаҳон мирам.

Азизон, ман ҳам аз инсонҳои ҳокиман афсўс,
Вучудам сўхт чун аз ғам, басо пурармон мирам.

Наояд гар Дилошўб аз пай назму наво як сўх,
Бидонед, эй азизон, ки ба ҳасрат он замон мирам.

ҶАНГИ АФҶОНИСТОН ҶАНГИ ХУНИН БУД

дақиқа афсар ба назди кўмондон омада арз намуд, ки сой хеле дароз тўл кашида, дар паноҳи харсанғову дарахтони булут тўпнуҳи ҷангӣ ва техникаҳои низомиро паноҳ намуздан имконият дорад. Кўмондон ба ҳама афсарон амр намуд, ки зудтар баҳри амнияти хеш ва техникаҳои низоми чораҳо ҷўянд. Гулўлаборонҳои муҷоҳиддин чанде меистод ва боз андохти думболодори хешро идома меод. Ҳама ҷузву томҳои гунди тўпчи аз пай иҷрои фармони кўмондон ба азмӣ зиёд ҷаспида буданд. Куллаҳои кўҳ соя афканда гирду атрофро торикӣ тира пахш карда ба дилҳо ваҳму ҳаросро бедор мекард. Зирехпўро мо дар ҷуқурии сой базўр паноҳ додем. Ҳама то торикӣ шаб аз пай кандани истеҳком ва паноҳгоҳҳо машғул гаштанд.

Моро садоҳои гулўлаҳои оташи субҳи барвақт аз хоб бедор кард. Гулўлаҳои оташи дар ин ҷангро ба он хотир андохт мешуд, ки он барои дарроддани васоитҳои нақлиётӣ, маҳсусан, дизелӣ, муҳимоти ҷангӣ ва пасон барои аниқ кардани ҷой ва қароргоҳи қувваҳои муқобила ба қор мебаранд. Пас аз ин андохтҳо агар қароргоҳи қувваҳои муқобил пурра аниқ гардад, он гоҳ ба нуктаи танзим гашта, пайи ҳам андохтҳои зарбатӣ ба нишон гирифта мешуд. Андохтҳои муҷоҳиддин поёнтар аз куллаи кўҳ, каме дуртар аз қароргоҳи афтида ба ҷузву томҳои низоми особа нарасонида зуд хомўш гашт. Кумондони тўпчи бо воситаи бесим ба ҳама ҷанговарони гунд амр намуд, ки андохтро ба дурбинҳо мунтазам тахти назорат гирифта, пас аз аниқ кардани ҳадаф ба муқобили қувваҳои муҷоҳиддин андохти зарбатиро омода созанд. Пас аз нафасе садои кўмондони блуки тўпчи расид. Ў ба кумондон арз мекард, ки андохти паёпайи муҷоҳиддинро дар ҳадафи муайяне ба қайд гирифтанд, агар ў ба андохти зарбатӣ амр диҳад, тўпчини бечуну чаро ин ҳадафро ба нишон хоҳанд гирифт. Кумондон дар ҷавоб гуфт, ки ҳадафро дубора ва се бора аниқ карда, пасон ба андохти зарбатӣ ҷавоб диҳанд. Ҳамин сон ҷанги ду ҷониб аз субҳи солеҳон оғоз гашт. Ҳарду ҷониб ба муқобили якдигар андохтҳои ҷавобии зарбатии хешро мефиристанд.

Азбаски ҷузву томҳои тўбчи дар истеҳкомҳо хеле хуб паноҳ ёфта буданд, то ба ҳол на сарбозон ва на васоитҳои

ҚАЙДҶО ВА ЁДДОШТҶО

низоми аз асари андохтҳои зарбатии муҷоҳиддин зараре надида буданд. Кумондон пас аз андохтҳои шадидаи муҷоҳиддин аз ҳолу аҳволи нафарони тўпчи ва дигар афсарону сарбозон зуд-зуд боҳабар гашта, ба онҳо тақроран амр меод, ки истеҳкомҳо хешро боз ҳам мустаҳкам намоянд. Ў таъкидан меғуфт: истеҳкомҳои мустаҳкам – гарави эминии ҳамагон дар ҷанг аст. — Агар сарбоз ба худ истеҳкомӣ бехатар омода карда бошад, ў дар ҷанг ғолиб меояд. Кумондон ин суҳанонро ба ҳамагон гуфта ба сўи мушовир Ҷетков Владимир Александрович нигоҳ карда ҳамин суҳанонашро дубора ба забони русӣ тақрор кард. Мушовир пас аз шунидани ин гапҳо кумондонро ҷонибдорӣ намуд ва ў низ илова кард, ки баҳри мустаҳкамии истеҳкомҳои хеш ҳар як сарбозу афсар ҷунон бояд заҳмат кашад, ки то дар ин ҷанги беамон зинда монанд.

Пас аз чанд соат авзои ҳаво яку яқбора тағир ёфт. Ҳама гирду атрофро тумани ғавсе печонида гирифт, ки кас дар бист-сӣ қадам сояи касеро дида наметавонист. Ҳама ба ин тағироти ҳаво дар хайрат афтода буданд. Кунун садои андохтҳои ҳарду ҷониб хомўш гашта буданд.

Сим-сим, ришта-ришта борон меборид. Мўстадил, маҳин-маҳин сару рӯи қасро гўё навозиш мекарду меғуфт: “Эй ҳазрати одам, силоҳ ба замин монед, якдигарро ба оғўш кашед, ки кинаварзидан аз тинати одамии берун аст. Қадри якдигар бидонед, ки ногаҳ эй якдигар намонед”.

Гўйе ҳама лаб фуру баста буданд дар миёни ин қоркўҳҳо. Сарбозон ба умедаи фарогату дуркардани сардиҳо гулҳан афрўхта буданд. Сарбозе ба гулҳани дар-гирифта бо таҳаммул ҷўбҳои хушқиро ёқоқ мепартофту зери лаб ин мисраҳои наврўзиро замзама мекард:

**Худоё наврўз аст,
Дунё ду рўз аст.**

Ў ин сурудро маҳин-маҳин зери лаб тақрор мекарду ноаён аз чашмонаш сели ашқ ҷорӣ мегашт. Ва ман, ки ин суруди ширинро шунида мафтун гашта, ин лаҳзаи нотақрорро чанд қадам дуртар аз сарбоз назора мекардам, дилам ба рик-қад меомад ба худ гуфтам, ки шояд дарди ниҳоне дорад бечора. Худо меғуфтам, ки ў бештар суруд хонаду ман лаззат барам ва ғубори дил бираҳонам...

Нурали РАҚАБ.